

KONSTITUTSIYA TARIXI: TARAQQIYOTI VA AHAMIYATI

SHAVKATBEKOVA ODINA MIRZA AKBAR QIZI SHAMSIDDINOVA SHOXISTA G'AYRATJON QIZI

Andijon davlat pedagogika instituti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasasi o'qituvchisi: KELDIYEVA SHAHNOZA SHUHRATOVNA
"Maktabgacha ta'lif" fakulteti "Logopediya" yo'nalishi 1- bosqich 101-guruh talabalari

ANNATOTSIYA: Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy hujjati bo'lib, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimini belgilab beradi. Tarix davomida konstitutsiyalar jamiyat hayotining o'zgarishlari va ehtiyojlariga qarab rivojlanib kelgan. Bu maqolada konstitutsiya tarixining rivojlanish bosqichlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar; konstitutsiya, qonun, davlat, komissiya, jamiyat, mustaqillik, monarxiya.

АННОТАЦИЯ: Конституция является основным документом любой страны и определяет ее политическую, социальную и экономическую систему. На протяжении всей истории конституции развивались в соответствии с изменениями и потребностями общества. В данной статье говорится об этапах развития истории конституции и ее роли в развитии общества.

ABSTRACT: The constitution is the fundamental document of any state, determining its political, social and economic. Historically, institutions have developed in accordance with the changes and life of societies. This article discusses the individual stages of the history of the constitution and its time in the development of society.

"Konstitutsiya" atamasi lotincha *constitutio* so'zidan olingan bo'lib, "tuzilish", "asosiy tartib" degan ma'noni anglatadi. U dastlab Rim imperiyasida imperatorning farmonlari va qonunlari yig'indisini ifodalagan. Biroq zamonaviy ma'nodagi konstitutsiyalar XVIII asrning oxirlarida shakllana boshladi.

Konstitutsiya – davlatning asosiy hujjati bo'lib, davlat boshqaruvi, hukumat organlari faoliyatining tartibi va tamoyillari, davlat, jamiyat, fuqarolarning huquq hamda majburiyatlari u bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ushbu maqsadlarning barchasiga muvofiq, uyg'un va hamohangdir. O'zbekistonning Asosiy Qonuni ushbu muhim vazifalarni hayotga tatbiq etishda mustahkam asos bo'lib xizmat qilayotir. Unda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qiymati, diniy e'tiqodi va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyamizda jinsi, millati, dini, irqi, yoshi, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha fuqarolar teng huquqli deb e'lon qilingan bo'lib, unda inson huquqlari va e'tiqod erkinligini kamsitadigan birorta ham modda yo'qdir.

Asosiy qomusimiz hatto insoniyatni qamrab olgan ona tabiat, yer osti va yer usti tabiiy boyliklarigacha qonun himoyasida ekanligi, hozirgi kunda yer yuzida mavjud davlatlarning deyarli barchasi o'zlarining Konstitutsiyasiga ega bo'lмаган bir paytda, milliy ramzlar qatorida tilga olinadigan Konstitutsiyaga bizning mamlakatimiz ham ega ekanligi baxtimiz albatta. Asosiy qonunimizda demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, o'ziga xos belgi va xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

Bugun yurtimizda keng qamrovli xalqchil islohotlar kechmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlarning asl mohiyati har bir O'zbekiston fuqarosining hayotdan rozi bo'lib yashashiga qaratilgan. Mamlakatimizda inson qadr-qimmati va sha'ni yuksak darajaga ko'tarilgan. Vatanimizda yashovchi barcha fuqarolar ushbu Qomusda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklardan keng va to'liq foydalanmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yilning 1 may kunidan kuchga kirdi. Yangi tahrirdagi konstitutsiya 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra qabul qilindi. 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jami 15 marta o'zgartirish

kiritilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 ta bo'lim, 27 ta bob va 155 ta moddadan iborat. Bu konstitutsiyasi xalqimizning orzu-istiklarini jamlanmasi bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yurtimizning bosh qomusi- Konstitutsiyamizni o'rganishga hamda o'z huquq va burchlarini bilishga, qonun-qoidalarga rioya qilishga, uning davlatimiz siyosatida muhim o'rinni tutishini anglashga va o'rganishga har bir fuqaro uchun suv va havodek zarur hisoblanadi.

2.Birinchi konstitutsiyalar

Konstitutsianing zamonaviy shakli Buyuk Fransuz inqilobi va Amerika inqilobi davrida paydo boldi.

- AQSh Konstitutsiyasi (1787)-dunyodagi birinchi yozma konstitutsiya bo'lib, u federal tuzilmani va fuqarolik erkinliklarini belgilab berdi. Bu hujat bugungi kungacha amal qilib kelmoqda. Bu konstitutsiyalar jamiyatdagi inson huquqlari, qonun ustuvorligi va davlat boshqaruvining aniq chegaralarini belgilashga qaratilgan birinchi yirik qadamlar bo'Idi.

3. Konstitutsiya va davlat qurilishi

XIX va XX asrlarda ko'plab mamlakatlar o'z konstitutsiyalarini qabul qila boshladi. Har bir konstitutsiya o'sha davlatning siyosiy va tarixiy sharoitlarini aks ettiradi:

-Buyuk Britaniya - yozma shakldagi konstitutsiyasi yo'q bo'lsa-da, asrlar davomida shakllangan qonunlar va an'anaviy qoidalar davlat boshqaruvining asosini tashkil etadi.

- SSSR Konstitutsiyalari (1924, 1936, 1977)- sotsialistik jamiyat qurilishi tamoyillarini aks ettirgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi (1992)- davlat mustaqilligidan so'ng, mustaqil O'zbekistonning asosiy qonuni sifatida qabul qilingan. Unda demokratiya, inson huquqlari va qonun ustuvorligi tamoyillari mustahkamlangan.

4. Konstitutsiya ahamiyati

1. Huquqiy asos: Konstitutsiya davlat va jamiyatning huquqiy asosini belgilab beradi

2. Fuqarolik huquqlari kafolati: Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qiladi

3. Barqarorlikni ta' minlash: Konstitutsiya davlatning ichki siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim ro'l o'yaydi.

4. Davlat organlarini tartibga solish: Konstitutsiya davlat organlarining vakolatlari va funksiyalarini aniq belgilaydi.

5. O'zbekistonda konstitutsiya asosiy qonun.

Mustaqillikdan song davlatning asosiy qonuni konstitutsiyasi qabul qilingani O'zbekistonning yangi davrga qadam qoysanini ifodalaydi. konstitutsiva varatish uchun maxsus komissiya tashkil qilindi. Bu komissiyaga prezidentimiz Islom Karimov boshchilik qilgan.

Xulosa

Konstitutsiya nafaqat davlatning huquqiy asosini, balki uning kelajagini ham belgilab beradi.

Tarix davomida konstitutsiyalar insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilgan va qilmoqda. Bugungi kunda ularning zamonaviy talqini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu maqola O'zbekiston Konstitutsiyasining 1992-yildan buyon mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini tushunishga ham yordam beradi.